

## BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH YO'LLARI

*Giyaev Rustamjon Abdurasulovich-Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash, ularni undirish yo'llari, ularni boshqarish, muammoli qarzdorliklarni vujudga kelish sabablari hamda muammoli kreditlarning bank faoliyati va rivojlanishida ta'siri to'g'risida tahliliy ma'lumotlar asosida yorilgan.

**Kalit so'zlar:** Kredit portfel, kredit siyosati, muammoli aktivlar, standart kreditlar, substandart kreditlar, qoniqarsiz kreditlar, shuhbali kreditlar, umidsiz kreditlar.

### Kirish

O'zbekiston Respublikasida bank tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishi sifatida kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik echimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash belgilanganligi bank aktivlari sifatini yaxshilash zarurligini belgilaydi.

Maxalliy va xorijiy ilmiy va maxsus adabiyotlarda muammoli aktivlarni ko'pincha kreditlar bilan bog'laydi hamda "muammoli aktiv", "muammoli kredit", "ishlamaydigan kredit" (non-performing loans (NPLs)), "xarakatsiz kredit" kabi tushunchalar bilan ifodalaydi.

Muammoli aktiv - bu bank joylashtirgan resurslarning bir qismini qaytmasligi yoki bank ixtiyoridan chiqib ketishi, hisoblangan daromadlarni ololmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar (zararlar) riski bo'lgan bankning aktivlari va moliyaviy majburiyatları hisoblanadi.

### Mavzuga oid adabaiyotlar tahlili

Muammoli kreditlar bo'yicha ko'plab olimlarning yondashuvlari mavjud bo'lib, jumladan:

Ular muammoli aktivlarni ko'pincha kreditlar bilan bog'laydi hamda "muammoli aktiv", "muammoli kredit", "ishlamaydigan kredit", "xarakatsiz kredit" kabi tushunchalar bilan ifodalaydi.

Tuxtabaev muammoli kreditlar kredit risklarining amalda yaqqol namoyon bo'lishining natijasidir ya'ni kredit risklarini to'g'ri boshqara olmaslikning oqibati bo'lib hisoblanadi. Kredit riskini yuzaga chiqishi kredit va uning foizi bo'yicha to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilmasligini keltirib chiqaradi.

Abdullaev, Qoraliev va boshqalar muammoli kreditlarni muddati o'tgan, foyda keltirmayotgan kreditlar sifatida qaraydi.

Abdullaeva bankning kredit portfeli va uning sifati to‘g‘risida aniq ma’lumotga ega bo‘lmaslik, zarur hollarda oldindan choralar ko‘rilmaslik natijasida muammoli kreditlar yuzaga kelishi mumkinligini va ular risklarni minimal darajadaga etkazishga to‘siq bo‘lishini qayd etadi.

Dudinets muammoli bank aktivlarini ularning qaytishiga shubha tug‘diradigan yoki ularni joylashtirish yohud ishlatalishdan iqtisodiy foyda olmaslik ehtimoli bo‘lgan bank aktivlari sifatida qaraydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ilmiy ishni amalga oshirishda banklarda muammoli kreditlar va ular bilan ishslash yo‘llari bo‘yicha soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og‘zaki fikrmulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish orqali tegishli yo‘nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

### **Tahlil va natijalar**

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruving 2015 yil 13 iyundagi 14/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq, tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar “standart”, “substandart”, “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb belgilari ko‘ra tasniflanadi.

Muammoli aktivlar deganda esa, sifati “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog‘ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag‘lar, olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan va (yoki) undirilmagan foizli va foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulklari, bo‘lib-bo‘lib to‘lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatları, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda kredit tavakkalchiligi mavjud bo‘lgan boshqa aktivlar va balansdan tashqari moddalar tushuniladi.

Kredit siyosati-Bank boshtsaruv organlari tomonidan belgilangan bank biznes-rejasi, bankni rivojlantirish strategiyasi yo‘nalishlari va yondashuvlaridan kelib chiqib, kreditlarni ularning qaytarilishi, foizliligi va muddatliligi sharti bilan o‘z nomidan o‘zining mablag‘lari hamda jalg‘ etilgan mablag‘lar hisobidan berish tartibini belgilovchi, kredit ajratish va kredit tavakkalchiliklari hamda kredit portfelini samarali boshqarishga qaratilgan, kredit bozoridagi bank faoliyatining asosiy tamoyillarini belgilovchi va bankka kredit amaliyotlarini (mikroqarz, kredit, lizing, faktoring, akkreditiv, bank kafolati bilan bog‘liq barcha amaliyotlar) tartibga soluvchi bankning asosiy ichki me’yoriy hujjati hisoblanadi.

muammoli kreditlar – muddati o‘tgan asosiy yoki foiz qarzdorliklar yuzaga kelgan kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring amaliyotlari (muddati o‘tgan hisobvaraqlarga o‘tgan asosiy yoki foiz qarzdorliklar yuzaga kelgan va sud jarayonida turgan kreditlar) hisoblanadi.

Tijorat banklarida muammoli qarzdorliklarni undirish yuzasidan “Call” markazi bilan hamkorlikda qarzdorlarga telefon qilish ishlarini tashkil qilish, qarzdorlarning telefon raqamlarini to‘g‘ri taqdim etilishini ta’minalash va “Call” markazi tomonidan mijozlar bilan amalga oshirilgan muloqotning samaradorligini baholab borish maqsadida:

- chakana kreditlar bo‘yicha qarzdorlar, ularning sherik qarzdorlari va kafillari hisobidan (bank kartalaridan) muddati o‘tgan qarzdorliklarni avtomat tarzda undirib olinishini tizimli nazorat qilish;

- kredit muddati o‘tgan hisobvaraqa o‘tishidan oldin qarzdorlarga muddati o‘tgan qarzdorlik summasi yuzaga kelishi mumkinligi to‘g‘risida dasturiy ta’minot orqali ogohlantiruvchi SMS xabar yuborishni tashkil etish va nazoratini (SMS xabarnomani jo‘natilmagan qarzdorlarga jo‘natilmaganlik sabablari, telefon raqamlar to‘g‘riliqi, dasturiy ta’minotga dastlabki tegishli ma’lumotlarni to‘g‘ri kiritilishi) yuritish;

- muddati o‘tgan qarzdorlik summasini vaqtida to‘lashi kerakligi to‘g‘risida ogohlantiruvchi SMS xabar yuborilganligi yoki SMS xabar o‘chirilganligiga aniqliklar kiritish (SMS xabarnomani jo‘natilmagan qarzdorlarga jo‘natilmaganlik sabablari, telefon raqamlar to‘g‘riliqi, dasturiy ta’minotga dastlabki tegishli ma’lumotlarni to‘g‘ri kiritilishi) amalga oshirish;

- qarzdorliklarni undirish ishlarini tashkil qilish maqsadida mas’ul xodimlari faoliyatini muvofiqlashtirish, amalga oshirilgan ishlarni doimiy muhokama qilib borish;

- bank mahsulotlarini tahlil qilib borish, muammoga aylanishi ortib borayotgan mahsulotlar bo‘yicha kreditlash amaliyotlarini cheklash choralarini ko‘rish;

- hududlarga borgan holda mas’ul xodimlar ishlarini o‘rganish, ular faoliyatini yanada samarali tashkil etish maqsadida amaliy yordam ko‘rsatish;

- muammoli qarzdorliklarni undirish maqsadida Respublika darajasida hal qilinadigan masalalar bo‘yicha tegishni tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- mas’ul xodimlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ularni rag‘batlantirish (chora ko‘rish) maqsadida “Kpi” ko‘rsatkichlarini shakllantirish uchun tegishli tarkibiy bo‘linmaga ma’lumotlar taqdim etib borish;

- muammoli qarzdorliklarni undirish ishlarida muntazam ravishda sustkashlikka yo‘l qo‘yayotgan mas’ul xodimlariga chora ko‘rish (intizomiy chora, rotatsiya, mehnat shartnomasini bekor qilish va boshqalar) bo‘yicha bank Boshqaruviga ma’lumot taqdim etish ishlari olib borilmoqda.

Muammoli qarzdorliklarni undirish yuzasidan viloyat hududiy boshqarmalarida

- muddati o'tgan qarzdorligi mavjud mijozlarni ro'yxatini shakllantirish;

- muammoli qarzdorliklar yuzaga kelgan mijozlarni toifalarga ajratish, bunda, o'z ixtiyori bilan to'lovchi mijozlar, bank xodimi telefon orqali muloqotga chiqishi talab etiladigan mijozlar hamda mijozning faoliyat manziliga borish va uchrashish orqali kreditni undirish talab etiladigan toifalarga ajratish;

- kredit qarzdorliklarini o'z ixtiyori bilan to'lovchi mijozlar hisobini yuritish va ular tomonidan kredit mablag'larini o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilib borish;

- telefon orqali muloqotga chiqishi talab etiladigan qarzdorlarga muddati o'tgan kreditni to'lash bo'yicha telefon yoki boshqa aloqa vositalari orqali aloqaga chiqish hamda ular bilan to'lovlarni amalga oshirish muddatlarini kelishib olish, to'lovlar hisobini yuritish;

- qolgan toifadagi mijozlarning qarzdorlarini undirish bo'yicha mijozning faoliyat manziliga borish va ular bilan uchrashish orqali kreditni undirish choralarini ko'rish (qarzdorga ogohlartirish xati (talabnama) taqdim etiladi, loyihami amalga oshirish istiqbollari o'rganiladi).

Shu bilan birgalikda viloyat va tuman filiallarida faoliyat olib borayotgan bankning mas'ul xodimlari bilan birgalikda:

- belgilangan tartibda kreditning maqsadli ishlatilishi monitoring qilish;

- mas'ul xodimlar ishtirokida kredit mablag'ini sarflanishi bo'yicha joyida monitoring dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Monitoring dalolatnomasi rasmiylashtirish jarayonida sotib olingan mahsulotlar yoki xizmatlar bo'yicha yuk xati, hisob-fakturalari yoki bajarilgan ish dalolatnomalari olinib, solishtirib ko'rildi. Monitoring jarayonlaridan fotosuratlar ilova qilinadi;

- monitoring jarayonida maqsadsiz va samarasiz sarflangan kredit mablag'lari aniqlangan holatlar bo'yicha mijozlarning kredit yig'ma jildlari xujjatlari (jumladan, kredit buyurtmanomasi, kredit shartnomasi, garov, kafillik va ta'minotning boshqa shartnomalardan, qarz oluvchining identifikatsiyalash hujjatlaridan, pasport, guvohnoma, Nizom va ta'sis xujjatlari)dan nusxalar olgan holda filialning boshqaruvchisiga bildirishnomasi orqali qonuniy chora ko'rish maqsadida hujjatlarni topshiradi;

- qarzdorlikni o'z vaqtida to'lashni yoki belgilangan tartibda xuquqiy choralar ko'rish to'g'risida ogohlantirish yuzasidan qarzdorlarga (qarzdor, garov egalari, kafillar, korxona ta'sischilar) talabnama yuborish;

- muammoli qarzdorliklar bo'yicha joyiga chiqilgan holda qarzdorlar, garov egalari, kafillar, korxona ta'sischilar bilan uchrashadi, kreditni undirishning barcha choralarini ko'radi, kredit to'lamaslikning huquqiy oqibatlari to'g'risida to'liq ma'lumotlar (ogohlantirishlar) taqdim etish;

- kredit mablag'laridan samarali foydalanish, loyihani amalga oshirish istiqbollari hamda garov ob'ektlari holatini o'rganish yuzasidan oraliq monitoring amalga oshiriladi. Monitoring jarayonida kreditlarni to'lash bilan bog'liq yuqori tavakkalchiliklar yuzaga kelish ehtimoli bo'lgandan kreditni muddatidan oldin undirish choralarini ko'radi;

- o'zlariga biriktirilgan kredit mablag'larining to'lanish holati bo'yicha kunlik hisobot yuritadi.

Tijorat banklarida tashkil etilgan Muammoli aktivlar bilan ishslash departamenti:

- qarzdorliklarni undirish ishlarini tashkil qilish maqsadida hududiy filiallar mas'ul xodimlari faoliyatini muvofiqlashtirish, amalga oshirilgan ishlarni doimiy muhokama qilib borish;

- hududlarga borgan holda mas'ul xodimlar ishlarini o'rganish, ular faoliyatini yanada samarali tashkil etish maqsadida amaliy yordam ko'rsatish;

- qarzdorlarga (kafil tashkilotga, garov egalariga, korxona ta'sischilariga) so'ngi huquqiy choralar ko'rish ishlari boshlanganligi to'g'risida ogohlantirish xatlari (talabnomalar) yuborilishini nazorat qilish;

- har bir mijoz kesimida O'zbekiston Respublikasi Savdo sanoat palatasiga tegishli sud organlariga da'vo arizalarini kiritilishi bo'yicha o'z vaqtida murojaat qilinishi (zarur holatlarda to'g'ridan-to'g'ri sudga taqdim etilishi mumkin), qarz oluvchilar bilan mediatsiyalarini o'tkazilishi hamda davo arizalarini sudga taqdim etilishini nazorat qilish;

- sudning barcha instansiyalarida bank vakillarining ishtirok etishi, sudning hal qiluv qarorini o'z vaqtida chiqarilishi yuzasidan barcha zaruriy choralarini ko'rlishini tizimli nazorat qilish;

- sudning hal qiluv qarori asosida chiqarilgan ijro varaqalarini MIB hududiy bo'linmalari tomonidan o'z vaqtida ish yurituviga olinishi va ijro ishi yuritishni qo'zg'atish yuzasidan qaror qabul qilishlarini nazorat qilish;

- majburiy ijro muddati davomida qarz oluvchi va garov egasining mol-mulklarini belgilangan tartibda va o'z muddatlarida xatlash, auksion savdolarga chiqarish ishlarini nazorat qilish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- MIBning garov ob'ektlarini kredit qarzdorligini qoplash evaziga bank balansiga qabul qilish yuzasidan taklif xatlarini belgilangan tartibda va qisqa muddatlarda ko'rib chiqilishini nazorat qilish;

- kredit qarzdorliklarini undirish bilan bog'liq MIB ish yurituvida qarzdorliklarni undirish bo'yicha har bir bosqichni nazorat qilish, tegishli choralarini amalga oshirib borish;

- kreditdan foydalanishda jinoyat alomatlari aniqlangan (kredit maqsadsiz ishlatilgan, talon-taroj qilingan, hujjatlar qalbakilashtirilgan va holatlar) holatlarda

kreditni muddatidan oldin undirish va tegishli choralar ko‘rilishi maqsadida huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilinishini tashkil etish va nazorat qilish;

- bank balansining ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlariga o‘tkazilgan (95413, 91500 h/v) qarzdorliklarni undirilishi yuzasidan muntazam ravishda, bir oyda kamida bir marta qarzdorga balansdan tashqari moddalardagi qoldiqlarga mos keladigan asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzning mavjudligini ma’lum qilgan holda kredit bo‘yicha qarzni qoplash va u bo‘yicha hisoblangan foizlarni to‘lash talab qilingan da’vo xatlarini yuborilishini hamda choralar ko‘rishni davom ettirilishini nazorat qilish;

- bo‘lib to‘lash sharti bilan sotilgan mol-mulklar (16803 h/v) bo‘yicha yuzaga kelgan muddati o‘tgan qarzdorliklar undirilishini tashkil etish va nazorat qilish;

- muammoli qarzdorliklarni undirish maqsadida Respublika darajasida hal qilinadigan masalalar bo‘yicha tegishni tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- hududiy filiallar mas’ul xodimlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ularni rag‘batlantirish (chora ko‘rish) maqsadida “Kpi” ko‘rsatkichlarini shakllantirish uchun tegishli tarkibiy bo‘linmaga ma’lumotlar taqdim etib borish;

- muammoli qarzdorliklarni undirish ishlarida muntazam ravishda sustkashlikka yo‘l qo‘yayotgan hududiy filial mas’ul xodimlariga chora ko‘rish (intizomiy chora, rotatsiya, mehnat shartnomasini bekor qilish va boshqalar) bo‘yicha bank Boshqaruviga ma’lumot taqdim etish kabi vazifalarni amalga oshiradi..

Hududiy filiallar muammoli aktivlar bilan ishslash bo‘yicha mas’ul xodimlarning vazifalari:

- qarzdorlarga (kafil tashkilotga, garov egalariga, korxona ta’sischilariga) ogohlantirish xatlarini (talabnomalar) yuborish;

- qarzdorlikni undirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Savdo sanoat palatasiga tegishli sud organlariga da’vo arizalarini kiritilishi bo‘yicha murojaat qilish;

- qarzdorlikni undirish bo‘yicha sud jarayonlarida mas’ul xodimlar bilan birgalikda ishtirok etish;

- sudning hal qiluv qarori asosida chiqarilgan ijro varaqalarini MIB hududiy bo‘linmalari tomonidan o‘z vaqtida ish yurituviga olinishi va ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish yuzasidan qaror qabul qilishlari yuzasidan samarali hamkorlik qilish;

- majburiy ijro muddati davomida qarz oluvchi va garov egasining mol-mulklarini belgilangan tartibda va o‘z muddatlarida xatlashda ishtirok etish, auksion savdolarga chiqarish ishlarini amalga oshirish;

- MIBning garov ob’ektlarini kredit qarzdorligini qoplash evaziga bank balansiga qabul qilish yuzasidan taklif xatlarini belgilangan tartibda va qisqa muddatlarda ko‘rib chiqilishini tashkil etish;

- MIB hududiy bo‘linmalari bilan samarali hamkorlikni tashkil qilish orqali ish yurituvida bo‘lgan qarzdorliklarni undirish ishlarini tezlashtirish choralarini ko‘rish;

- kreditdan foydalanishda jinoyat alomatlari aniqlangan holatlarda kreditni muddatidan oldin undirish va tegishli choralar ko‘rilishi yuzasidan huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilinishini ta’minlash (Bosh ofis yuridik departamenti bilan kelishilgan holda);

- bank balansining ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlariga o‘tkazilgan (95413, 91500 h/v) qarzdorliklarni undirilishi yuzasidan muntazam ravishda, bir oyda kamida bir marta qarzdorga balansdan tashqari moddalardagi qoldiqlarga mos keladigan asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzning mavjudligini ma’lum qilgan holda kredit bo‘yicha qarzni qoplash va u bo‘yicha hisoblangan foizlarni to‘lash talab qilingan da’vo xatlarini yuborish, undirish borasida ko‘rilgan choralarini davom ettirish;

- bo‘lib to‘lash sharti bilan sotilgan mol-mulklar (16803 h/v) bo‘yicha yuzaga kelgan muddati o‘tgan qarzdorliklar undirish choralarini ko‘rish va tegishli holatlarda ushbu mulklarni qaytarib olish choralarini ko‘rishga mas’ul hisoblanadi.

**Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to‘g‘risida  
2024 yil 1 yanvar holatiga ma’lumot**

mlrd. so ‘m

Nº	Bank nomi	Kredit portfel	Muammoli kredilar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
	<b>Jami</b>	<b>471 406</b>	<b>16 621</b>	<b>3,5%</b>
	<b>Davlat ulushi mavjud banklar</b>	<b>333 298</b>	<b>13 267</b>	<b>4,0%</b>
1	O‘zmilliybank	99 423	3 098	3,1%
2	O‘zsanoatqurilishbank	57 124	1 283	2,2%
3	Agrobank	54 483	2 071	3,8%
4	Asaka bank	39 213	1 731	4,4%
5	Xalq banki	24 549	1 855	7,6%
6	Biznesni rivojlantirish banki	21 801	1 935	8,9%
7	Mikrokreditbank	14 437	865	6,0%
8	Turon bank	11 894	271	2,3%
9	Aloqa bank	10 294	157	1,5%
10	Poytaxt bank	79	2	2,3%

<b>Boshqa banklar</b>		<b>138 107</b>	<b>3 354</b>	<b>2,4%</b>
11	Ipoteka bank	37 264	1 733	4,7%
12	Tenge bank	4 208	109	2,6%
13	Tibisi bank	3 730	73	1,9%
14	Universal bank	1 162	35	3,0%
15	Garant bank	922	43	4,7%
16	Madad invest bank	292	39	13,2%
17	Oktobank	249	212	85,2%
18	Eron Soderot bank	22	4	17,6%

2024-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) davlat ulushi mavjud banklarda o‘rtacha 4,0 foizni hamda boshqa turdagи banklarda mazkur ko‘rsatkich o‘rtacha 2,4 foizni tashkil etgan.

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, muammoli kreditlar asosan davlat ulushi mavjud banklarda boshqa banklarga qaraganda nisbatan yuqori sanaladi.

Muammoli kreditlarning eng yuqori ulushi davlat ulushi mavjud banklari ichida Biznesni rivojlantirish bankida 8,9 foiz va boshqa banklar ichida Oktobankda 85,2 foizni tashkil etgan. Bu o‘ta salbiy holat bo‘lib hisoblanadi.

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, muammoli kreditlar asosan davlat ulushi mavjud banklarda boshqa banklarga qaraganda nisbatan yuqori sanaladi.

### Xulosa va takliflar

Respublikamizda faoliyat olib borayotgan tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlarning muammoli (harakatsiz) kreditlarga aylanmasligini oldini olish va ularni undirishda quyidagi takliflar:

- banklarga kredit uchun kelib tushgan arizaga atroflicha yondashuv, ya’ni daslabki monitoringni to‘g‘ri va mukammal amalga oshirish. Bu erda birinchi navbatda mijozning kredit tarixiga, uning moliyaviy ahvoliga, biznes hamkorlari orasidagi obro‘-e’tiboriga hamda ushbu sohadagi yillik tajribasiga asosiy e’tiborni qaratish;

- kredit arizasini ko‘rib chiqilayotgan davrda mijoz tomonidan bankka takdim etayotgan hujjatlar to‘plamining kreditlash tartibiga asosan to‘liqligini va ularning to‘g‘riligini tekshirish;

Kredit bo‘limi tomonidan biriktirilgan bank xodimi tomonidan mijozning moliyaviy ahvoli chuqur tahlil etilishi va xolisona baho berilishi zarur;

- kredit ajratilgan davrdan boshlab, mijozning biznes-reja ko‘rsatkichlarini bajarilishi, hisobvarag‘idagi mablag‘lari aylanmasini doimiy ravishda nazorat qilib borish, muddati o‘tgan debitorlik-kreditorlik qarzdorliklariga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

- kredit ta'minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkni saqlash va asrash sharoitini doimiy ravishda nazorat qilib borish;
- kredit ta'minoti sifatida uchinchi shaxsning kafillik shartnomasi taqdim etilgan bo'lsa, kafilning moliyaviy hisobotlarini har chorakda bir marotaba tahlil qilib uning to'lov qobiliyatini o'r ganib borish;
- bank tomonidan ajratilgan kredit mablag'lari maqsadli va samarali sarflanishini monitoring qilish, shuningdek, joriy va choraklik monitoringlarni doimiy o'tkazib borish;
- korxonaning mol-mulkini baholashda bankning mulkni baholash bo'yicha mutaxassisiga ko'proq imkoniyatlar yaratib berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 may «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida» gi PF-5992-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/docs/4811025>
2. [www.imf.org](http://www.imf.org) (Xalqaro valyuta fondi) – internet sayti ma'lumotlari.
3. [www.world.com](http://www.world.com) (Jahon banki guruhi) - internet sayti ma'lumotlari.
4. Likova N.M. Ranee obnarujenie problemnix kreditov // Bankovskoe delo. – Moskva, 2013. - №8. - S. 51.
5. Doklad Stiglitsa. Per. s angl. – M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 2010. – S. 69-70.
6. Drobozina L.A. Finansi, denejnoe obrashchenie, kredit -Moskva. YuNITI, 2000. – S. 329.
7. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. T.: - Moliya.-2012-B. 124.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020 yil 21 sentyabrdagi "Bir qarz oluvchi, o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhi, shu jumladan bankka aloqador shaxslar uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdori to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 21/12-sen Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banking statistik ma'lumotlari asosida hisoblandi.